

ikkinchi bir jihatdan, asarning asl qimmatini anglash va his etishda alohida o‘rin tutadi”[4:314]. Ayni shu jihatdan Luqmon Bo‘rixonning hikoyalari xarakterlidir.

Umuman, har bir asar ma’lum bir uslub va yo‘nalishda yaratilar ekan, u badiiy tafakkurning o‘tgan yoxud zamonaviy davri xususiyatlari bilan bog‘liq holda voqe bo‘ladi. Bu esa uslubiy yo‘nalishlarda an‘ana va yangicha qarashlarni vujudga keltiradi va badiiy ijoddagi davomiylikni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: “Шарқ”. 2007. Б. 22.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: “Ўқитувчи”. 1986. Б. 401.
3. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016. Б.5.
4. Назаров Б. Ижоднинг жон томири. –Тошкент: “Tafakkur tomchilari”. 2022. Б. 314.

SOBIR ABDULLA IJODIDA G‘AFUR G‘ULOM OBRAZI

Azimjon DAVRONOV

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir va yozuvchi Sobir Abdulla ijodida akademik shoir G‘afur G‘ulom obrazi yoritilgan. Sobir Abdulla ijodida G‘afur G‘ulom siymosiga bo‘lgan hurmat va ehtirom ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: Sobir Abdulla, she‘r, G‘afur G‘ulom obrazi

Annotation: This article describes the image of the academic poet Gafur Ghulam in the work of the poet and writer Sabir Abdulla. The work of Sabir Abdulla, respect and reverence for the figure of Gafur Ghulam.

Keywords: Sabir Abdulla, poem, image of Ghafur Ghulam.

XX asrning 30-yillarida o‘zbek adabiyotiga bir qator iste’dodli adiblar kirib kelganlar. G‘afur G‘ulom, Oybek, Sobir Abdulla, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon va Zulfiya shular jumlasiga kiradi. Bular bir-birlari bilan adabiy-ijodiy hamfikir, juda ham inoq do‘st, doimiy ravishda oilaviy bordi-keldida bo‘lganlar. Barchamizga ma’lumki, G‘afur G‘ulom shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist, tarjimon, adabiyotshunos olim sifatida faoliyat yuritgan. G‘afur G‘ulom ijodiga xos qirralardan tashqari adibning o‘ziga xos xislat va fazilatlarini bisyor bo‘lgan. Ana shu o‘ziga xoslikni uning eng yaqin do‘stlaridan biri adib Sobir Abdulla o‘z ijodida ifoda etgan.

Sobir Abdullaning to'rt jildlik "Asarlar" to'plamining birinchi jildida 1948-yilda yozilgan "Do'stim G'afur G'ulomga"⁵² nomli she'ri bor. Mazkur she'rning boshlanishidan tushunish mumkinki, ayni pallada Sobir Abdulla va G'afur G'ulom Davlat mukofotiga sazovor bo'lganlar. She'r yozilgan paytda mukofotga sazovor bo'lgan ikki adib chorak asrlik do'st bo'lishgan. She'r muallifi qadrli do'stini ushbu mukofot bilan qutlab, dilidagi tilaklarni bayon etgan. Ya'ni, she'rda G'afur G'ulomga uzoq umr tilagan, nuroniy mo'ysafid bo'lgan chog'ida ham kitobxon, she'rxonlar qurshovida, ardog'ida bo'lishini istagan. Yana "Mirzacho'l"ning obod makonga aylanishi haqida yozgan she'r va dostonlariga to'xtalib, Mirzacho'lda yangi avlodlar tug'ilib, G'afur G'ulom ijodining davomchilari maydonga kelishini istagan. Shoir tilagan tilaklar ro'yobga chiqib, Mirzacho'ldan Halima Nosirovadek shoiralar etishib chiqqan. Sobir Abdulla do'sti G'afur G'ulomning dog'ini ko'rmaslik va o'zining dog'ini G'afur G'ulomga ko'rsatmasligini Ollohdan so'ragan. She'r hajm jihatdan kattagina bo'lsa-da, faqat G'afur G'ulom obrazini yaqqol namoyon etgan ushbu to'rtliknigina ko'rsatish imkoniga ega bo'ldik:

Borar ijod ortgan bir ulug' karvon,
Sen bo'lsang shavkatli karvonning nori,
Manzil yiroq emas, yo'llardir ravon,
Maqsad cho'qqilari tog'dan yuqori.

Shoir Sobir Abdulla yozganidek, G'afur G'ulom she'r karvonining karvonboshisi bo'lib qoldi.

She'rning yana bir joyida mana bunday satrlar uchraydi:
Kutar million-million kitobxonlaring,
Qil ijod, qil ijod, qil ijod yana.
To'planib qadrdon ham mehmonlaring
Bo'lsin takror-takor shunday tantana.

Sobir Abdulla ushbu satrlarni yozayotib, xuddi mana shu kunlarni nazarda tutib yozgandek, go'yo. Chunki, G'afur G'ulom avlodlari va keng adabiy jamoatchilik doim uni takror va takror yodga oladi. Har yili uning uy-muzeyiga million-million kitobxonlar, adabiyot ixlosmandlari, o'quvchi va talabalar, mahalliy va xorijlik sayyohlar tashrif buyurib, G'afur G'ulom siymosi bilan tanishadilar hamda adibning ijodiy merosidan bahramand bo'ladilar.

1963-yilda shoir Sobir Abdulla G'afur G'ulomning 60 yoshga to'lishi munosabati bilan "Uni G'afur G'ulom deydilar"⁵³ nomli ikkinchi she'rini yozadi. She'rda G'afur G'ulom el ichida yaxshi nomu ehtiromga loyiq, do'stlar ichida hazilkash, ijodda mushtumchi, feletonchi, qing'ir yo'lda yurganlarga va qing'ir ishlarga murosasiz, siyosatchi rahbar sifatida quyidagicha gavdalanadi:

Jurnalu gazetalarda nomi –

⁵² Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975 йил, 191-192-бетлар.

⁵³ Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975 йил, 359-360-бетлар.

Tez-tez ko`runib, quvonch bag`ishlar,
Goh feletoni chiqar xitobli,
Goh she`ri yozilib jadal shitobli,
Labbay degay u, chaqirsa ijod,
Do`stlarni etib yozish bilan shod,
Qing`ir kishilarga beayovdir;
Kim bo`lsa xaromxo`r: unga yovdir.

Sobir Abdulla G`afur G`ulomni atroflicha bilgani bois, akademik shoir to`g`risida shunday xulosalarga kelgan. Ushbu she`r yuqorida taqdim qilingan she`rdan 15 yil keyin yozilgan. Yuqoridagi she`rda taqdim etilgan ma`lumotlarga ko`ra, 1948-yilda bu ikki adib, chorak asr do`st bo`lishgan. Ushbu she`rning yozilgan yilidan hisoblasak, Sobir Abdulla ikkinchi she`rni yozganda ularning do`stligiga 40 yil to`lgan. Ana shu jihatdan olib qaraganimizda Sobir Abdulla G`afur G`ulom obrazini to`la yoritib berishga muyassar bo`lgan.

1967-yilda Sobir Abdulla “G`afur G`ulom”⁵⁴ nomli uchinchi she`rini yozadi. Birinchi she`rda dog`ingni ko`rmayin, dog`ingni ko`rsatmasin deb iltijo qilgan shoir, mazkur she`rda g`am-g`ussaga botadi, afsus chekadi. Tushkunlikka tushadi. Do`stiga tasalli berib:

Xayr do`sti dildirug`im, sham`ing yoniq hamisha,
To she`rki bor jahonda; o`chmog`i noravodir.

Eslab tanimda jon bor, bor do`stlaring qatori –

Ruhingni shod qilmoq Sobirda muddaodir, – deb chuqur qayg`usini izhor etadi.

Ushbu she`rda shoir G`afur G`ulomning qadrli va ardoqli siymo ekanini, uning nomi dillarda, qalblarda mangu yashab qolishini ifoda etadi. Sobir Abdulla oxirgi she`rini yozganiga yarim asrdan ko`proq vaqt o`tgan bo`lsa-da, shoir yozganidek, adabiyot ahli G`afur G`ulomni bir dam ham unutgani yo`q. Keng adabiy jamoatchilik mana bugun ham G`afur G`ulom tavalludining 120 yilligini adib qadr-qimmatiga munosib ravishda o`tkazishga qizg`in tayyorgarlik ko`rmoqdalar.

Sobir Abdulla do`sti G`afur G`ulom haqida nafaqat she`rlar yozdi, balki G`afur G`ulomning shaxsiy ishtirokida yumoristik hikoyalar ham yozgan. Ushbu hikoyalar “G`afur G`ulom va aptekachi hikoyalari”⁵⁵ deb nomlanib, 1969-yilda kitobcha holida nashr etilgan. Mazkur hikoyalar to`plamidan o`rin olgan hikoya qahramonlari shoirlar G`afur G`ulom, Sobir Abdulla, Zokir Habibiy, Abduvahob Sayfiy va aptekachi Maxmudxon Fayzullaxonovlardir. Aptekachi Maxmudxon Fayzullaxonov G`afur G`ulomning yaqin do`sti bo`lgani uchun doim shoirlar gurunglarida ishtirok etadi. Hikoya voqealari G`afur G`ulom, Sobir Abdulla, Sayfiy va Habibiylar bir tomonda, aptekchi ikkinchi tomonda bo`lib, ikki

⁵⁴ Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, Тошкент, 1975 йил, 410-бет.

⁵⁵ Собир Абдулла. Ғафур Ғулом ва аптекачи ҳикоялари, Тошкент, 1969 йил, 5-6-бетлар

tomon o'rtasida ichak uzdi hangomalar va yumorga boy qizg'in bahs-munozaralar orqali bayon qilinadi. Hikoyalar qisqa-qisqa bo'lgani uchun yozuvchi tomonidan alohida nomlanmagan. Sizlarga misol tariqasida taqdim qilmoqchi bo'lgan hikoyachani mazmuniga qarab, shartli ravishda **“Antiqa tovuq”** deb nomladik.

Kunlardan bir kuni G'afur G'ulom, Maxmudxon aptekachi, Zokirjon Habibiy va Abduvahob Sayfiylar Sobir Abdullaning dala hovlisida to'planadilar. Dala hovlidagi bog'ning bir chetida tovuqxona bo'lib, tovuqxonadagi o'nlab tovuqlar quyoshning tig'ida qolgani sababli hansirayotgan bo'ladi. Maxmudxon aptekachi hayron bo'lib, G'afur G'ulomdan tovuqlar nimaga hansirayotganini so'raydi. G'afur G'ulom hansirash sababini tovuqning egasidan so'rashini aytadi. Aptekachi o'sha savolni tovuqlarning egasi Sobir Abdullaga beradi. Sobir Abdulla o'ylab o'tirmay semiz tovuqlar ko'p tuxum tug'sa charchab qoladi. Masalan, huv ana shu katta tovuq ertalabdan buyon 5 ta tuxum tug'di. Kichiklari 3 tadan – deb javob beradi. Shu payt G'afur G'ulom do'sti Maxmudxonni laqillatmoqchi bo'lib, Sobirjon tovuqlaringiz pishgan tuxum tug'ar ekan-a? – deb savol beradi. G'afur G'ulom ushbu yolg'onga do'stini ishontirish maqsadida jiddiy ohangda Sobir Abdullaga navbatdagi savol bilan murojaat qiladi: “tovuqlaringiz pishgan tuxum tug'ishida bir sir bo'lishi kerak? Sir bo'lmasa nega pishgan tuxum tug'adi? ”. G'afur G'ulom bergan savollarga Sobir Abdulla: “shu sir sirligicha qolsin” – deb, G'afur G'ulom yolg'onini rivojlantiradi, qo'llaydi. Maxmudxon aptekachi yolg'onga chippa-chin ishonib: “ayta qoling endi yosh bola emasmizku, sir sirligicha shu erda qoladi” – deb, Sobir Abdullaga yuzlanadi. Sobir Abdulla “Sir” ni oshkor qiladi. Ya'ni, go'yoki Sobir Abdulla tovuqlariga doim issiq ovqat beradi, sovuq suv o'rniga shakarli qora choy beradi, uning tovuqlari shuning uchun pishgan tuxum tug'adi. Sobir Abdulla javobidan Maxmudxon aptekachi o'ylanib, tuxumlar Sobir Abdullaga qimmatga tushar ekanda deb hisoblab qoladi. Bunday mazmundagi hikoyalar kitobchada juda ko'p uchraydi. Biz atigi bittasi haqida fikr yuritdik xolos.

Mazkur hikoyalar G'afur G'ulomning o'ta hazilkash, yumorga boy, ko'ngli toza beg'ubor inson bo'lganligini ifoda etadi. Shu bilan birga shoir va yozuvchi Sobir Abdullaning G'afur G'ulomga bo'lgan yuksak hurmati va sadoqatini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975 йил, 191-192-бетлар.
2. Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975 йил, 359-360-бетлар.
3. Собир Абдулла. Асарлар. Тўрт томлик. Биринчи том. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1975 йил, 410-бет.

4. Собир Абдулла. Ғафур Ғулом ва аптекачи ҳикоялари, Тошкент, 1969 йил, 5-6-бетлар

МАҚСУД ШАЙХЗОДАНИНГ НАВОИЙШУНОСЛИККА ОИД ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Жавлон ЖОВЛИЕВ

**Ўзбекистон Фанлар Академияси Алишер Навоий номидаги
Давлат адабиёт музейи илмий ходими,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

Аннотация: Мазкур мақолада атоқли олим ва шоир, драматург Мақсуд Шайхзоданинг ЎзФА Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи “Ўзбекистон ёзувчилари архиви” фондида сақланаётган мумтоз адабиётимизга оид тадқиқотлари, хусусан, Алишер Навоий ижоди борасида олиб борган илмий ишлари, мақолалари, кундалик-дафтарларда қолган фикрлари ҳақида гап боради.

Калит сўзлар: Мақсуд Шайхзода, архив, қўлёзма, матн, аслият, адабиётшунослик, манба, навоийшунослик.

Annotation: This article talks about the researches of the famous scientist and poet, dramatist Maqsud Shaykhzoda, which is kept in the "Archive of Writers of Uzbekistan" fund of the Alisher Navoi State Literature Museum of the UzFA, in particular, the scientific works, articles, and opinions left in the diaries about Alisher Navoi's work.

Key words: Maqsud Sheikhzadeh, archive, manuscript, text, originality, literary studies, source, Navoi studies.

Шайхзода кучли шоир, драматург, таржимон, педагог бўлиши билан биргаликда адабиётнинг юку енгини, кучу салмоғини тўғри баҳолай биладиган адабиётшунос эди. У ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётининг бир қатор сиймолари, хусусан: Низомий, Навоий, Бобир, Фузулий, Махтумкули, Огаҳий, Амирий, Нодирабегим, Завқий, Фуркат, Ҳамид Олимжон, Ғафур Ғулом, Ойбек, Шухрат, Зулифия ва бошқа кўплаб ижодкорлар ҳақида ёзган илмий мақола ва чиқишлари бунини исботлайди. Шубҳасиз, Шайхзода адабиётшунослигида Навоий алоҳида ўринга эга. Бу фикримизни адабиётшунос Абдулла Улуғ ўзининг “Навоийшунослигимиз алломаси ёхуд Шайхзода-адабиётшунос” мақоласида қуйидагича таъкидлайди: “Мақсуд Шайхзоданинг адабиётшуносликка оид тадқиқотлари марказида Алишер Навоий ижоди туради” [1; 228].

Мақсуд Шайхзода қўлёзмалари Ўзбекистон Фанлар академияси Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейининг “Ўзбекистон ёзувчилари